

BOLALARDAGI HISSIYOTLAR XUSUSIYATLARI

Almardonova Mo‘tabar Xolmo‘minovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika insitituti Tabiiy fanlar kafedrası o`qituvchisi
almardonova1motabar@gmail.com

Buxorova Mahliyo

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Biologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Usmonova So‘g‘diyona

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Biologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20351261>

Annotatsiya: Ushbu mavzu maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda hissiy kechinmalar kuchli va qisqa muddatli bo‘lishi bilan ajralib turadi. Bolalarning hissiy rivojlanishiga oila, tarbiya, ijtimoiy muhit va tengdoshlar bilan munosabatlarning ta‘siri ham tahlil qilinadi.

Kallit so‘zlar: Hissiyot, psixodinamik nazariya, taajjublanish hissi, musbat, manfiy hissiyot, emotsional holat, tarbiya, psixik rivojlanish.

Kirish. Bolalardagi hissiyotlar ularning ruhiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Hissiyotlar orqali bola atrof-muhitni anglaydi, odamlar bilan munosabat o‘rnatadi va o‘z ichki kechinmalarini namoyon qiladi. Bolalik davrida quvonch, qo‘rquv, xafa bo‘lish, qiziqish kabi hissiy holatlar tez-tez va kuchli namoyon bo‘ladi. Bu davrda hissiyotlar hali to‘liq boshqarilmagan bo‘lib, bola ko‘proq tashqi ta‘sir(larga) bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun bolalardagi hissiyotlar xususiyatlarini o‘rganish ularning tarbiyasi, ta‘limi va shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega. Atrofdagi voqealar, o‘qigan kitoblar, tinglagan musiqa va ma‘ruza, tomosha qilingan kinofilm yoki spektakllar, boshqalar bilan bo‘lgan muloqot natijasida odamda turli hissiyot (emotsiya) paydo bo‘ladi. Masalan, jiddiy o‘ylash holatlari, xursandchilik yoki nafratlanish, qayg‘u yoki kulgu, yig‘lash, osoyishtalik kabilar. Bu holatlar paydo bo‘lishida har bir odamning oliy nerv faoliyatining xossasi muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, ma‘lum bir voqeaga bir odamda osoyishtalik, o‘ylash holati paydo bo‘lsa, ikkinchisida bezovtalanish, qayg‘urish holati yuzaga keladi. Hissiyot ikki xil: musbat va manfiy bo‘ladi. Musbat hissiyot - xursandchilik, kulgu, qoniqish, yaxshi kayfiyat kabilar: manfiy hissiyot - qayg‘urish, qo‘rqish, taajjublanish, yig‘lash kabilar. Hissiyot markaziy nerv sistemasining qo‘zg‘alish va ichki sekretsiya bezlarining faoliyati kuchayishi bilan bog‘liq. Hissiyot tashqi muhitdagi turli ta‘sirlovchilarni analizatorlarning miyadagi qismiga retseptorlar orqali ta‘sir etishi natijasida vujudga keladi. Hissiyot ham reflekslar asosida, vegetativ nerv sistemasi markazlari, limb sistemasi, retikulyar formatsiyaning miya yarim sharlariga ta‘siri tufayli hosil bo‘ladi, deb tushuntiriladi. Bu sohalarining qo‘zg‘alishi o‘z navbatida ichki organlar faoliyatini o‘zgartiradi, skelet muskullariga trofik ta‘sir etadi. Shuningdek, hissiyot oraliq miya (ayniqsa o‘rta miyadagi maxsus yadrolar, retikulyar formatsiya, bo‘rtiq ostki yadrolarni), limfa bo‘laklari, bodomchasimon yadrolar orqali boshqarib turiladi. Hissiyotda miya yarim sharlarining peshona qismi asosiy rol o‘ynaydi. Odam hissiyotga berilganda ba‘zan imo-ishora muskullari, tana va qo‘l-oyoqlar muskullari o‘ziga xos ravishda qisqaradi. Simpatik nerv sistemasining qo‘zg‘alishi muskullarga trofik ta‘sir etib, qon bosimi ortishi hisobiga muskullar kuchi va chidamliligini oshirib yuboradi. Ayrim hollarda muskullar bo‘shashishi ham mumkin. His-hayajon bolalik davrida o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. Bu davrda bolalar yangilikka o‘ch bo‘ladilar. Yangilikni anglash, unga intilish, erishish, o‘zlashtirish bolalarda musbat hissiyotni yuzaga chiqaradi. Bu esa markaziy nerv sistemasi faoliyatini kuchaytiradi.

Bolalarda markaziy nerv sistemasi yuqori bōlimlarining to'liq mukammallashmaganligi ularda hissiyotning beqarorlashuviga sababchi bōladi. Bolalarning tez yig'lab, tez ovunishi, yig'i bilan kulguning tez almashinuvi, bola xursand bōlganda baland ovozda kulishi, qiyqirishi bunga misol bula oladi. Boshlang'ich maktab yoshiga kelib miya po'stloq bōlimlarining rivojlanishi natijasida asta-sekinlik bilan bolalar o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rgana boshlaydilar. Bu yosh ortishi bilan rivojlanib boradi va bunda albatta, ichki tormozlanishga yo'naltirilgan tarbiyaning roli kattadir. Bolalar his-hayajonlarini boshqarishni kattalardan o'rganadilar. Musbat hissiyot bolalarda markaziy nerv sistemasi faoliyatini oshiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda musbat hissiyotni hosil qilishga alohida e'tibor berish kerak.

Hissiy zo'riqish. Hissiyotlarni ichki ehtiyojlarining paydo bōlishi yoki tashqi ta'ssurotlar, jumladan xotiradagi malumotlarni eslash o'yg'otadi. Hissiyotlar odam kayfiyatini o'zgartirishdan tashqari, qon bosimi ko'tariladi, modda va energiya almashinuvi jadallashadi, skelet muskullar faoliyati o'zgaradi. Oddiy sharoitda muskullar birin-ketin ishga tushirilsa, his-hayajon vaqtida hammasi birdan faol holatga kelishi mumkin.[6] Umumiy psixologiya. Toshkent. Bog'cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasav-tatakkur, nutq, xayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal buladi. Bola ranglarni hali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam beradigan o'yinchoq-xar rangli kiyimlar, rangli halqalar, qutichalar va shu singari uyinchoqlar berish maqsadga muvofiqdir. Bog'cha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his- tuyg'ulari ko'p jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmaligi bilan bog'liqdir.[2] Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar diqqatining kuchi va barqarorligi ularning tabiatidagi hissiyotchanlik bilan ko'p jihatdan bog'liq. Bu yoshdagi bolalarning hissiyotlari davomli va barqaror bo'lmaganidek, ularning diqqatlari ham aytarli barqaror bo'lmaydi. Lekin bolalarning hissiyotlari ko'pincha juda kuchli bo'ladi. Shuning uchun ularning diqqatlari, garchi qisqa vaqt ichida davom etsa ham, kuchli bo'ladi. Maktab yoshidagi bolalarning hissiyotlari anchagina barqaror bo'la boshlaydi. Shuning uchun pedagog o'qish materialini hissiy momentlar bilan boyitar ekan, bu bilan diqqatning barqarorligi va kuchini saqlab turishga yordam beradi. Shuning uchun diqqatga doir bu sifatlarning keyingi taraqqiyoti ham irodaning taraqqiyoti bilan bog'liqdir.[1]

O'rtoqlik va do'stlik hissi kishilar xayrixoh bōlib bir-birini hurmat qilishida ifodalanadi. Bu hislar odamlarning umumiy mehnat va o'qish faoliyatidagi o'zaro munosabatlarda namoyon bōladi. O'rtoqlik va do'stlik munosabatlari, odatda, kishining bolalik cho'gidan boshlanadi. Bolalar bir-birlariga o'rtoqdirlar, chunki ular bir-birlari bilan bir xildagi o'yinlarni o'ynaydilar, bir xildagi vaziyatda birga bōladilar va shu sababli ularda umumiy qiziqish tu'giladi. Ular bir-birlarini ko'rib va bir-birlarini eslab shodlanadilar.[1]

Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bōlgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundak tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o'zlashtira boshlaydi. Natijada juda ko'p yangiliklar bilib oladi, o'zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini — umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko'chib keta beradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo'lgani uchun ular o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qiladilar. Emotsiya va hissiyotlarning shakllangan tizimida emotsiyalar boshdan o'tkazilayotgan hissiyotning

namoyon bo'lishi sifatida gavdalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya va hissiyotlar tizimi endi-endi shakllanayotgan bo'ladi. Shuning uchun ularning emotsiyalari ular kechirayotgan hissiyotlarning namoyon bo'lishi emas, balki ko'proq oliy hissiyotlarning shakllanishi uchun umumlashtirilishi kerak bo'lgan materialdir.[5] XX asr boshlanishida Jeyms-Lange nazariyasi juda ko'p tanqidga uchragan bo'lsada, lekin so'nggi paytlarda bu nazariyaga qiziqish paydo bo'lib, bu nazariyaga yaqin turadigan hissiyot haqida yangi nazariyalar paydo bo'ldi. Bu nazariyalarning paydo bo'lishi ko'p jihatdan individual psixologiyaning rivojlanishi bilan ham bog'liq. Psixologiyada kuchli his-tuyg'ular hisoblangan qo'rquv, hayajon, tushkunlik, rashk odatiy ruhiy faoliyatni izdan chiqaradi. Bolalarda hislarning tashqi ifodasi juda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Katta odamlar o'zlarining ayni chog'dagi hissiyotlarini yashirishlari mumkin. Lekin bolalar, ko'pincha, buning uddasidan chiqa olmaydilar. Psixik jarayonlar qatori hissiyotlar ham bolalarda juda erta boshlanadi. Birinchi bosqich – his-tuyg'u va ehtiyojga qarab qoniqish qoniqmaslik birga keladigan hisdir. Ikkinchi bosqich – ijtimoiy hislar: yoqtirish, o'z-o'zini yaxshi ko'rish, xafagarchilik hissidir. Birmuncha kechroq (qariyb uch yoshdan boshlab) bolalarda estetik did hissi rosmama namoyon bo'ladi. Bola «chiroyli-xunuk» degan narsalarga aqli yeta boshlaydi. Uchinchi bosqich – hissiyotning jadal, hattoki, zo'r berib avj olishi, qo'zg'aluvchanlikning oshganligi va maktabgacha yoshda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ayni paytda axloq-odob hissi rivojlana boshlaydi. So'nggi bosqich – bolalarda maktab yoshida oliy hissiyotning rosmama rivojlanishi bilan xarakterlanadi. His-tuyg'uni tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. U umuman tarbiyaning doimiy hamrohi bo'lmog'i lozim.[4]

Xulosa qilib aytganda, bolalardagi hissiyotlar sud jarayoni va shaxs sifatida muhim ega bo'lgan. Bolalik orqali hissiyotlar tez o'zidan, ta'sirchan va samimiy bo'lib, yosh o'tishi bilan asta-sekin harakatlanib boradi. Bolaning hissiy rivojlanishida muhit muhiti, ota-onalar munosabati, ta'lim-tarbiya jarayoni hamda ijtimoiy muhim rol o'ynaydi. Mehribon, e'tibor va qo'llab-quvvatlash orqali bolalarda qo'llab-quvvatlash hissiyotlarni saqlash mumkin. Aksincha, ruhiy holatdagi ruhiy holatga va xulq-atvoriga kasallik ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tufayli pedagoglar va ota-onalar bolalarning hissiy holatini doimiy nazorat qilib, emotsional rivojlanishga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Demak, bolalardagi bolalarni chuqur o'rganish to'g'ri yo hissiyotlarni barkamol, ma'naviy yetuk hamda sog'lom avlodni tarbiyada muhim omildir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. “JONLI VA JONSIZ TABIAT”. Modern Education and Development, vol. 23, no. 3, Apr. 2025, pp. 351-6, <https://scientific-jl.com/mod/article/view/7685>.
2. O'ZBEKISTON QO'RIQXONALARI. HISOR QO'RIQXONASI. (2025). Modern Education and Development, 23(2), 409-416. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/7260>
3. QIZIL KITOBGA KIRITILGAN HAYVONLAR HAQIDA . (2025). Modern Education and Development, 23(5), 109-112. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/8310>
4. O'ZBEKISTONNING FOYDALI QAZILMALARI. (2025). Modern Education and Development, 22(5), 76-80. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/6514>
5. O'ZBEKISTONNING FOYDALI QAZILMALARI. (2025). Modern Education and Development, 22(5), 76-80. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/6514>
6. Nuraliyev, S. (2024). ANAGALLIS ARVENSIS LINN. (SCARLET PIMPERNEL)NING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI HAMDA TUZILISHI. Talqin Valar tadqiqot , 2 (7(44)). <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2121> dan olingan.